

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
XALQARO FESTIVALLAR DIREKSIYASI
O‘ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI
AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-sentabrdagi “Lazgi” xalqaro festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorining ijrosini ta’minlash, o‘zbek milliy raqs san’atining umumbashariy hamda milliy qadriyatlarni aks ettirishdagi darajasini baholash va ilmiy jihatdan asoslash maqsadida **2024-yil 25-aprel kuni** Xiva shahrida o‘zbek va jahon raqs san’ati tadqiqiga bag‘ishlangan **“Xorazm “Lazgi” raqsi: madaniy diplomatiyani rivojlantirishning ilmiy – nazariy, ma’naviy – ma’rifiy tamoyillari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy–amaliy anjuman o‘tkaziladi.

Konferensiya o‘tkaziladigan sana: 2024-yil 25-aprel.

Konferensiya o‘tkaziladigan joy: O‘zbekiston Respublikasi, Xiva shahri.

Konferensiyaning maqsadi: “Xorazm Lazgi raqsi” san’ati hamda boshqa xalqlarning azaliy an’analarini saqlash va rivojlantirish, raqs san’ati orqali xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va qardoshlikni mustahkamlash, raqs san’atining turli yo‘nalishlarida tajriba almashish, xalqaro miqyosda ijodiy hamkorlik va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish.

Anjumanda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha sho‘balar tashkil qilinadi:

1. Xorazm “Lazgi” raqsi: milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi;
2. O‘zbek milliy raqsining jahon raqs san’atidagi o‘rni;
3. Jahon raqs san’ati: Sharq va G‘arb an’analari;
4. Zamonaviy jarayonda milliy raqs san’ati taraqqiyoti: raqs ta’limi va baletmeysterlik mahorati.

Anjumanda xorijiy davlatlar va respublikamiz oliy o'quv yurtlari professor – o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar, magistrlar, talabalar hamda soha mutaxassisleri ishtirok etishlari mumkin.

Ishtirok etish shakli: offlayn, onlayn.

Anjumanning ishchi tillari: o'zbek, rus, ingliz.

Ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etish uchun ariza va materiallar tashkiliy qo'mitaga 2024-yil 21-martga qadar diana.abdulova@mail.ru Abdulova Diana Ulfatovna elektron pochta-siga yuborilishi kerak.

Maqola rasmiylashtirish talablari:

1. Matn hajmi – 5-7 betdan ko'p bo'lmasligi talab etiladi;
 2. Microsoft Word formatida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattalikda, 1,5 intervalda, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqoridan va pastdan 2 sm joy qoldirib yoziladi, A4 formatda, defis qo'yilmaydi, sahifalar raqamlanmaydi.
- Muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi, Ilmiy daraja, lavozim, tashkilot, shahar, mamlakat o'zbek, rus va ingliz tillarida (o'ng tomonda) yoziladi;
- Maqola sarlavhasi o'zbek, rus va ingliz tillarida katta harflarda, qalin shrift bilan yoziladi; Sarlavhadan keyin 5-6 qatorli annotasiya va kalit so'zlar (8 ta so'zdan oshmasligi kerak) o'zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

Matnda havola to'rtburchak qavs ichida tartib raqami bilan belgilanadi: [5] yoki [5, s. 22]. Adabiyotlar ro'yxati maqola oxirida beriladi;

Materiallarning mazmuni, saviyasi va keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldir.

Taqdim etilgan material avval boshqa nashrlarda chop etilmagan bo'lishi kerak.

Anjuman talabiga mos kelmagan va ko'rsatilgan muddatdan keyin yuborilgan maqolalar to'plamga kiritilmaydi.

Konferensiya yakunlari bo'yicha maqolalar to'plami nashr etiladi. To'plam xalqaro tizimda indekslanadi. Anjumanning har bir ishtirokchisi sertifikat bilan taqdirlanadi.

Ishtirokchining arizasi:

Familiya, ismi, otasining ismi (to'liq)	
Ish joyi (qisqartirmasdan to'liq yoziladi)	
Lavozimi	
Ilmiy daraja, ilmiy unvon, faxriy unvon	
Telefon raqam (+ WhatsApp, Telegram)	
E-mail	
Konferensiyada ishtirok etish shakli (online/to'g'ridan-to'g'ri)	
Ma'ruza yoki maqola nomi (qo'shtirnoqsiz)	